



THE POLITICAL SITUATION IN TURKESTAN DURING 1917–1924 AND THE FORMATION OF THE SYSTEM OF GOVERNANCE

Ilyosbek Mamatkarimov

Research intern at Namangan State Pedagogical Institute

Email: mamatkarimovilyosbek@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: samoderzhavia, Commissar, Guard, Bourgeoisie, congress, proletariat, front, garrison.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article studies the change of government in Turkestan in 1917-1924, the emergence of ideological processes, the widespread promotion of communist ideas in educational and public organizations, and the introduction of non-traditional methods of governance in the government system.

1917-1924 YILLARDA TURKISTONDAGI SIYOSIY VAZIYAT, HOKIMIYAT TIZIMINING TASHKIL ETILISHI

Ilyosbek Mamatkarimov

Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

E-pochta: mamatkarimovilyosbek@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: samoderjaviya, Komissar, Gvardiya, Burjuaziya, syezd, proletariat, front, garnizon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda 1917-1924-yillarda hukumat almashinushi, mafkuraiy jarayonlarni yuzaga kelishi, komunistik g'oyalarni ta'lif va jamoat tashkilotlarida keng jahbada targ'ib qilish, hokimiyat tizimida boshqaruvin usulini noan'anviy usulda joriy qilish o'rganilgan.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ТУРКЕСТАНЕ В 1917–1924 ГОДАХ И ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЛАСТИ

Ильёсбек Маматкаимов

Стажёр-исследователь Наманганского государственного педагогического института

Электронная почта: mamatkarimovilyosbek@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: самодержавие, комиссар, гвардия, буржуазия, съезд, пролетариат, фронт, гарнизон.

Аннотация: В статье рассматривается смена власти в Туркестане в 1917–1924 годах, зарождение идеологических процессов, широкая пропаганда коммунистических идей в образовательных и общественных организациях, внедрение нетрадиционных методов управления в систему государственного управления.

Kirish. O‘rtal Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerda asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi izdan chiqarildi. Rivojlangan Yevropa davlatlariga nisbatan qiyoslaganda Rossiya Yevropa mintaqasi uchun har jihatdan qoloq davlat hisoblangan. Ayni o‘sha qoloq davlat tasarrufida bo‘lgan Turkiston o‘lkasi ham tabiiy holda rivojlanishda jahon taraqqiyotidan ortida qolmoqda edi.

Masalaning yana bir jihatni, Imperiya markazida bo‘lgan har qanday o‘zgarish albatta Turkiston o‘lkasida ham o‘z aks-sadosini berib, birinchi galda bu salbiy jarayonlarda namoyon bo‘lar edi. 1917 yilning fevral oyida Rossiyadagi demokratik kuchlar mamlakatda inqilobni amalga oshirdilar. Podshoh samoderjaviyasi qulatilib, yangi demokratik davlat barpo etish uchun kurash jarayonlari boshlanib ketdi.

Mahalliy ulamo va jadidlar tashabbuslari hamda rahbarligida o‘lkada musulmon ishchi, dehqon deputatlari sovetlari tashkil etila boshladi. Bu kabi Sovetlar Toshkent shahrining Eski shahar qismida, Sirdaryo, Samarqand, Andijon va Farg‘onadagi shaharlarda ham tashkil topdi. Musulmonlarning ishchi-dehqon Sovetlari majlislarida harakat birligini ta’minlashga qaratilgan siyosiy tashkilotlar tuzishga kirishdilar. Ilk tashkilotlarning dastlabkisi “Sho‘roi Islomiya”, deb nomlanib, 1917-yilning 14-martida Toshkentda tuzildi. Tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida o‘n besh kishidan iborat rayosat ham saylandi. “Sho‘roi Islomiya”ni tuzishda jadid rahbarlaridan Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li tashabbus ko‘rsatadi. Tashkil etilgan rayosat a’zoligiga Fitrat, Abulvohid Qori, Ahmadbek Hoji Temirbekov, Mirkomilboy Mo‘minboyev, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Salimxon Tillaxonovlar saylandi. “Sho‘roi Islomiya” hamda uning markaziy rayosati Turkiston siyosiy va ijtimoiy hayotida muhum o‘rin tutdi .

Imperiya markazida Muvaqqat Hukumat tuzilib, o‘tkazilajak Ta’sis Majlisiga tayyorgarlik jarayonlari boshlab yuborildi. Ammo, o‘tgan 7-8 oylik muddat ichida juda ulkan islohotlarni amalga oshirish dushvor bo‘lib, bundan bolsheviklar partiyasi samarali foydalandi. Nihoyat, 1917 yilning oktyabr oyiga kelganda Vladimir Lenin boshchiligidagi bir guruh kommunistlar Petrogradda davlat to‘ntarishini amalga oshirib, qurolli qo‘zg‘olon ortidan hokimiyatni qo‘lga kiritdilar .

Birinchi jahon urushi oqibatida Rossiya imperiyasining barcha hududida bo‘lgani kabi Turkistonda ham iqtisodiyot izdan chiqib, aholining turmush tarzi og‘irlashdi, qimmatchilik avj oldi. Urush frontidagi harbiy harakatlar hamda 1916 yilgi xalq qo‘zg‘oloni natijasida Rossianing markazidan Turkiston o‘lkasiga bug‘doy hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tashib keltirish masalasi mushkullashdi. Keyinroq esa, butunlay to‘xtab qoldi. Ushbu davrda temir yo‘llarda harakat tartiblari buzilib, poyezdlar qatnovi izdan chiqdi. Boz ustiga 1917 yildan boshlangan qurg‘oqchilik hamda turli tabiiy ofatlar mavjud vaziyatni yanada battar og‘irlashtirdi. 1916 yildan boshlab Turkiston o‘lkasining Yettisuv oblastida ocharchilik boshlandi.

Demokratik Rossiya tarkibida mahalliy aholi uchun muxtoriyat tashkil qilish uchun kurash masalasi 1917-yil davomida Turkistondagi taraqqiyparvar kuchlarning maqsad – intilishlarining asosini tashkil qildi.

Hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi, iqtisodiyotda keskin o‘zgarishlarning amalga oshirilishi, an’anaviy boshqaruv tizimining buzilishi shundoq ham jar yoqasida turgan iqtisodiy ahvolni tang holatga kelishiga olib keldi. 1917-yilning 1-noyabriga kelib, Toshkentda ham hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tdi .

1917-yilning 15-22-noyabr kunlari Turkiston Sovetlarining Toshkentda bo‘lib o‘tgan III o‘lka se’zdida bolsheviklarning Turkiston o‘lka Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Dastlab 15 ta komissarlikdan iborat bo‘lgan bu hukumatga Fyodor Kolesov raislik qildi .

Turkistonda sovet hukumatining kadrlar siyosatiga xos xususiyatlari milliy masalada yanada yaqqol ko‘zga tashlandi. Turkiston o‘lka Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga mahalliy millat vakillaridan bironta ham nomzod kiritilmadi. Bu masalada F. Kolesov o‘z fikrlarini quyidagicha izhor qilgan edi: “Hozirgi vaqtida mahalliy aholining sovet hokimiyatiga munosabati shubhali, shu bois, inqilobiy hukumatga ularni qabul qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, bolsheviklar fraksiyasi tomonidan mintaqaviy hokimiyatning yuqori organlariga taklif qilish mumkin bo‘lgan mahalliy aholining proletar tashkilotlari ham yo‘q”. Sovetlar III se’zdning salbiy pozitsiyasi barcha musulmon siyosiy tashkilotlarini Musulmonlar Markaziy Kengashi atrofida birlashtirib, Turkiston musulmonlarining IV qurultoyini Qo‘qonda chaqirishga olib keldi .

Bolsheviklarning Toshkent shahar soveti raisi I. Tobolining so‘zlariga ko‘ra, “Sharqda musulmonlar yordamiga tayanib inqilob qilish o‘rinsizdir”. O‘zbeklarning barchasini u “savdogarlar”, deb va shuning uchun burjuaziya vakillari sifatida ularni “ikkinchi darajali fuqarolar”, deb ta’riflaydi. Qirg‘izlarga (qozoqlar) chorvador-ko‘chmanchi xalq sifatida baho berib, “bu xalqning yo‘q bo‘lib ketishi, madaniyatli rus xalqi uchun yangi yer maydonlarini o‘zlashtirilishi uchungina ahamiyatli bo‘ladi xolos”, degan edi .

Voqealar rivojida Bolsheviklarning siyosiy hokimiyatga zo‘ravonlik bilan kelishi natijasida g‘ayriilmiy tarzda yuritgan iqtisodiy siyosat sababli 1917 yil oxiri va 1918 yilning boshlariga kelib

boshlangan ocharchilik, Turkistonda ham ommaviy tus oldi. Ocharchilikdan esa, asosan mahalliy millat vakillari katta jabr ko‘rdi .

Mahalliy taraqqiyparvar tashkilotlarning tashabbusi bilan 1917-yilning 26-29-noyabr kunlari Qo‘qon shahrida Turkiston musulmonlarining favqulodda IV - syezdi bo‘lib o‘tdi. Uning ishida barcha viloyatlardan 300 dan, ortiq, shu jumladan, yevropaliklar tashkilotlaridan ham vakillar ishtirok etdi. Syezd 27-noyabr kuni Ta’sis Majlisi chaqirilishi uchun hech qanday umid qolmaganligi, yagona to‘g‘ri yo‘l Muxtoriyat e’lon qilish ekanligini ma’lum qilgan holda, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e’lon qildi .

Qo‘qonda Turkiston musulmonlarining favqulodda IV-qurultoyi bo‘lib o‘tganligi, unda Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilganligi haqidagi xabar tez sur’atda butun o‘lka mehnatkashlari ommasi orasida keng tarqalib, katta qiziqish uyg‘otdi. Shahar va tumanlarda Muxtoriyatni shodu-hurramlik bilan kutib olinib, uni qo‘llab-quvvatlash uchun joylarda ko‘pming kishilik namoyish va mitinglar uyushtirildi.

Turkiston Muxtoriyati e’lon qilingan kundan e’tiboran, o‘zining siyosiy faoliyatini omma orasida keng yo‘lga qo‘ydi. Musulmon siyosiy tashkilotlari hamda ulardagi ma’rifatparvar-taraqqiypar milliy yoshlar guruhi hamda uyushmalari Muxtoriyatni keng miqyosda targ‘ib qildilar. Andijonda “Maorif havaskorlari”, Toshkentda esa, “Ishchilar to‘das” uyushma - jamiyatlari muxtoriyat manfaati yo‘lida faoliyat olib bordilar .

Muxtoriyatni butun o‘lkadagi kabi, Namanganda ham mahalliy millat vakillari qo‘llab-quvvatladilar. Xususan, 1-dekabrda Namangan uyezdida deyarli yuz ming kishi qatnashgan namoyish bo‘lib o‘tdi. Namoyish ishtirokchilarining bayroqlariga “Yashasun Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!”, degan so‘zlar yozilgan bo‘lib, namoyishchilar Muxtoriyat va uning Muvaqqat Hukumatiga sodiqliklarini Qur’on bilan qasam ichish orqali ma’lum qildilar .

1917 - yilning 6-dekabrida Toshkent shahri, Eski Juvadagi Beklarbegi Jom’e masjidida uyuştirilgan miting o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Mitingda oltmis ming shaharliklar qatnashdi. Ushbu miting tashkilotchilari keyinchalik ham “Sho‘roi Ulamo” va “Sho‘roi Islomiya” jamiyatlari tashkil qilgan faollar edilar. Mahalliy nashrlardan “Ulug‘ Turkiston”ning bergen xabariga ko‘ra, masjidning ichki sahni va tomlari odam bilan liq to‘lgan. Miting Sayyidg‘ani Mahmud raisligida o‘tgan (Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mulla Odil, Sherali Lapin va boshqalar uning o‘rinbosarlari edilar). Maqolada miting qatnashchilarining Turkiston Muxtoriyatini batamom qo‘llab-quvvatlaganliklari yozilgan. Miting Turkiston Muxtoriyatidan boshqa har qanday hukumatni tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi. Ishtirokchilar “Omin, Allohu akbar!”, deya yuzlariga fotiha tortib, Xalq kengashiga sodiq qolishga qasamyod qilganlar .

Tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatining insonparvarlik siyosati kommunistik tuzum asoschilar bo‘lgan bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda qarshi olindi. Oqibatda, Qo‘qon shahrida tuzilgan Turkiston Muxtoriyati 1918-yilning fevral oyiga kelganda qonga botirib, tugatildi .

Ayni damlarda joylarda bolshevistik hukumat o‘rnatalishiga qarshi ommaviy chiqishlar ham bo‘lib o‘tdi. Jumladan, 1918-yilning 15-yanvarida Namangan shahrida mahalliy aholi vakillarining sovet hokimiyatining o‘rnatalishiga qarshi qaratilgan mitingi bo‘lib o‘tdi. Ammo, ushbu miting Bolsheviklar tomonidan kuch bilan tarqatildi. Shu yilning 16-yanvarida esa, qurollangan ishchilar hamda askarlar shahar Dumasi, telegraf va bank binolarini qo‘lga olib, Duma raisi, shahar boshlig‘i va garnizon qo‘mondonini hibsga oldilar. Shu zaylda Namanganda ham sovet hokimiyati zo‘rlik bilan o‘rnatildi .

Sovetlarning V o‘lka qurultoyi 1918-yil 20-apreldan 1-maygacha bo‘lib o‘tib, u Turkistonda sovetlarcha Bolsheviklar dasturi tamoyillari asosidagi “Muxtoriyat”ni tashkil etish bo‘yicha maqsadni amalga oshirdi. 30-apreldagi qurultoyda Bolsheviklar taklifi bilan qabul qilingan “Turkiston Sovet Respublikasi to‘g‘risidagi Nizom”da Turkiston Rossiya Sovet Federatsiyasi tarkibidagi avtonom boshqaruv shakliga egalik qiluvchi va o‘z faoliyatini RSFSR hukumati bilan muvofiqlashtiruvchi Sovet Respublikasi, deb e’lon qilindi .

Mahalliy millatlarni davlat boshqaruvidan yiroqlashtirish siyosati, xalqlarning o‘z tarixiy taqdirlarini o‘zлari belgilash huquqini poymol etish, ijtimoiy noroziliklarning turli-tuman shakllarini keltirib chiqarilishiga sabab bo‘ldi .

Turkistonda mustabid sovet rejimining zo‘rlik bilan o‘rnatalishi, siyosiy qatag‘onlar ko‘plab mahalliy aholi vakillarining o‘zga yurtlarga bosh olib ketishiga sabab bo‘ldi: “Turkiston xalqi 1920 yildan keyin butun mol-mulkini tashlab, qarindoshlaridan ayro holda o‘zga yurtlarga chiqib ketishga majbur bo‘ldi”.

Bolshevistik hukumat avval boshdanoq, milliy tashkilotlarga nisbatan adovat va bepisandlik siyosatini oshkor qildi. “Sho‘royi Ulamo” tashkilotiga ham qarshi choralar ko‘rildi. 1918-yilning 13-mayida Xalq Komissarlari Soveti “ishchilar sinfi manfaatlariga javob bermagani uchun” bahonasi bilan Toshkent “Ulamo” tashkilotini tarqatib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ushbu tashkilotning barcha mol-mulki musodara etildi. Jamiatning “Al-Izoh” nomli jurnali ham “aholining bir qismini boshqasiga qarshi qo‘ygan” maqolalarni chop etgani uchun yopildi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag‘darilishi turkistonliklar tomonidan Rossiyaning bosqinchilik rejalari, ularning o‘z taqdirini o‘zi belgilashning ajralmas huquqiga tajovvuz qilishning ochiq dalili sifatida qabul qilindi .

1917-yilning noyabrida Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati o‘rnatalib, hokimiyatni Bolsheviklar qo‘lga olgach, o‘z hokimiyat organlarini tashkil etishga, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlamagan barcha avvalgi hokimiyat muassasalarini tugatishga kirishdilar. Ushbu holat

bevosita shahar Dumalariga ham talluqli edi. Turkiston Xalq Komissarlari Kengashi 1917-yilning 4-dekabrida Toshkent shahar Dumasini tarqatib yubordi .

Tez orada Farg‘ona vodiysidagi shahar Dumalari ham tugatildi. Vodiy shaharlarida bolshevistik diktatura asosida boshqariladigan shahar Ijroiya Qo‘mitalari va Sovetlari tashkil etila boshlandi. Shunday qilib, 1917-yilning oxiri va 1918-yilning yanvariga kelib, Farg‘ona vodiysining Namangan, Qo‘qon, Skobelev, Andijon kabi yirik markaziy shaharlarida sovet hokimiyatining boshqaruv organlari tashkil etildi .

1917-yilning 10-dekabrida Turkiston XKS eski hokimiyat organlarini tugatish va mahalliy sovetlarni tashkil qilish haqidagi dekretini e’lon qildi. Mazkur dekretga muvofiq, joylarda inqilobiy sudlar tuzila boshladi. Masalan, xuddi shunday sud 1918-yilning fevral oyi o‘rtalarida shahar soveti sud seksiyasining tashabbusi bilan Farg‘ona shahrida ham tashkil etildi. Bundan tashqari, Skobelev shahrida Qo‘qon (Turkiston) Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlashda ayblangan shaxslar uchun maxsus harbiy-inqilobiy sud tashkil etildi. Shuningdek, 1918-yil mart oyining oxirlarida Skobelev shahrida aksilinqilobchilarga qarshi kurashish uchun harbiy tribunal va Favqulodda Komissiya (ChK) faoliyatini boshladi. Shu bilan birga shu yilning 29-yanvarida Skobelev shahrida, jumladan butun Turkistonda ham Qizil Armiya saflariga askarlikka qabul qilish ishlari boshlab yuborildi. Iyun oyiga kelib esa, boshqa shaharlarda ham Qizil Armiya bo‘limnalari tuzila boshladi. Bu bilan bir qatorda mamlakatda Qizil Gvardiya qo‘sishlari ham tuzila boshladi. 1918-yil o‘rtalarida butun Farg‘ona vodiysida 8 000 qizilvardiyachilar bor edi.

Ularning asosiy vazifasi nima qilib bo‘lsa ham sovet hokimiyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, unga qarshi bo‘lganlarga nisbatan ayovsiz kurash olib borishdan iborat edi.

Oktyabr to‘ntarishidan keyin sanoat korxonalarida qat’iy ishchi nazorati o‘rnatildi. Uning vazifasi sifatida quyidagilar: ko‘chuvchi va ko‘chmas mulklar hisobini yuritish, xom ashyo, yarimfabrikat, moliya va boshqa sohalar hisobini yuritish belgiladi. Skobelev shahrida esa, shahar elektrostansiyasi, yog‘-moy va paxta tozalash va boshqa korxonalar ustidan ishchi nazorati o‘rnatildi.

Ishchi nazorati sanoat korxonalarini ijtimoiylashtirishda muhim bosqich vazifani o‘tadi. 1918-yilning 16-martida Turkiston XKS tog‘-kon sanoati, yog‘-moy,sovun ishlab chiqarish, paxta tozalash sanoatini davlat tasarrufiga o‘tkazish haqida dekret e’lon qildi .

1919-yilning 30-noyabrida Farg‘ona viloyatining Inqilobiy Qo‘mitasi uyezd-shahar Ijroiya Qo‘mitalarini tarqatib yuborish haqidagi qarorini e’lon qildi. Unga ko‘ra, Skobelev, Qo‘qon, Namangan hamda Andijon uyezd-shaharlardagi mavjud ijro etuvchi organlar o‘rnida bolshevistik Inqilobiy Qo‘mitalar tashkil etil .

Shunday qilib, shaharlar boshqaruvi biron bir huquqiy asos yoki Nizomga ega bo‘lmagan, birorta qonun-qoidaga amal qilmaydigan, sovet hokimiyati g‘oyalarini amalga oshirish uchun direktiv buyruq hamda repressiv usullar yordamida faoliyat ko‘rsatadigan organlar qo‘liga o‘tdi .

Taniqli olim Boymirza Hayit “Bosmachilar”: Turkiston milliy kurashi tarixi (1917–1934)” asarida sovet davlatini barpo qilish, zo‘ravonlik bilan amalga oshirilganini yozib qoldirgan edi. Voqealar guvohi bo‘lgan olimning yozishicha, viloyat va uyezdlardagi anjuman va yig‘ilishlarda yuz berayotgan haqsizlik hamdaadolatsizliklar to‘g‘risida ham oshkora fikrlar aytilgan edi. Masalan, 1921-yilning 13-yanvarida Namangan shahar partiyasizlar konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda Nuriddin Qoriyev so‘zga chiqib, ma’ruza qiladi. Uning ta’kidlashicha, muslimon mehnatkashlari eng oddiy huquqlardan ham mahrum etilgan bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohasida ikki xil o‘lchov mavjudligi: biri yevropalik aholi uchun, ikkinchisi esa muslimon aholisi uchun edi. Oziq-ovqat idoralaridagi oziq-ovqatlar aksar hollarda faqatgina yevropalik aholigagina berilgan bo‘lib, muslimon ommasi to‘q yevropalik aholining ko‘z o‘ngida ochlik dahshatlarini boshidan kechirib, o‘lib ketavergan. Teatr, maktab va boshqa aksariyat madaniyat muassasalari yevropalik aholi uchungina ochilgan va ishlab turgan.

“Mustamlakachilik siyosatining ana shunday manzaralarini boshidan kechirgan tub aholining sovet hokimiyatidan norozi bo‘lmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Turkistondagi dehqonlar va hunarmandlar keng xalq ommasi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurashga ko‘tarildi”, deb yozgan edi Boymirza Hayit .

1918 yil mart oyining oxirida RSFSR Xalq Komissarligining boshlig‘i sifatida I. Stalin Toshkent Soveti raisi I.Tobolina ko‘rsatmalar beradi. Unga ko‘ra, milliy proletariatni milliy burjuaziyadan ajratib olish uchun ular o‘rtasida tashviqot ishlarini kuchaytirish lozim edi. Bu jarayonlarning barchasi Turkiston o‘lkasida Sovet Avtonom respublikasini qaror toptirishga tayyorgarlik ko‘rishda muhim ahamiyatga ega vazifalardan sanalgan.

Shu bois, hokimiyatni mustahkamlash uchun targ‘ibot ishlarini avvalo mahalliy millatlar o‘rtasida samarali yo‘lga qo‘yishga intildilar. Sovet hokimiyati e’lon qilingach esa, barcha sohalar faoliyati mafkuraviylashtirildi. Misol tariqasida Hamza Hakimzoda 1918-yil sentyabrida “Farg‘ona shahar maorifi qoshida muslimon drama gruppasi”, deb ataluvchi tashkilot tuzdi. So‘ngra esa, grupper Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi tarkibiga o‘tkazilib, “O‘lka muslimon siyosiy drama gruppasi”, degan nom bilan qayta nomlandi. 1919-yil sentyabr oxirlarida “O‘lka muslimon siyosiy drama gruppasi” “2-Agitpoyezd” nomi bilan frontlarga yuborildi. Farg‘ona viloyati xalq maorifi siyosiy-ma’rifiy bo‘limining topshirig‘iga ko‘ra, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Namangan shaharlarida qizil askar garnizonlari hamda mahalliy xalq orasida turli madaniy tadbirlarni o‘tkazadi . Bu bilan milliy teatr faoliyati ham siyosiy yo‘nalish kasb etib, hukmron mafkura tamoyillariga moslashtirildi.

Sovet hokimiyatini o‘lkada zo‘rlik bilan o‘rnatalishiga qarshi mahalliy millat vatanparvarlari qahramonona kurash olib bordilar. Turkiston tarixida bolsheviklar bu harakatni “Bosmachilik” nomi bilan atadilar. Kommunistik rejim tarafdoirlari Milliy ozodlik uchun kurash olib borayotgan Istiqlolchilarga qarshi qurolli harakatlar bilan bir paytda tashviqot-targ‘ibot ishlarini ham jonlantirib bordilar. Sovet hokimiyati haqida ommada xayrixohlik hosil qilish uchun xalq orasiga communistlar yuborildi. Turkiston frontiga yordam ko‘rsatish uchun esa, Turkiston kompartiyasi a’zolaridan 25 foizi ajratilib, safarbar qilindi.

Turkiston communistlari partiyasi Markaziy Komitetiga Farg‘ona frontida Istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun bиргина Qo‘qonda 350 ta partiya a’zosi, Skobelevda esa, 210 ta partiya a’zosi safarbar qilinganligi, butun vodiyya 3000 dan ko‘proq partiya a’zosi jalg etilganligi haqida hisobot yuborilgan edi .

Xulosa. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda Farg‘ona va Turkiston bolsheviklarining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi noto‘g‘ri siyosati, sovet hukumati va qurolli otryadlarning Farg‘onada tinch aholiga qarshi olib borayotgan terror siyosati, bunga javoban o‘lkada Istiqlolchilik harakatining paydo bo‘lishiga olib keldi. Harakatning 1918 yil fevralidan 30-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan butun davri davomida Turkistonning milliy suvereniteti va mustaqilligi uchun kurash g‘oyasi asosiy ustivor g‘oya bo‘lib qolaverdi. Harakatning yuksalishi, undagi ishtirokchilari tarkibining o‘zgarishi va kuchlar muvozanatiga ta’sir ko‘rsatgan obyektiv va subyektiv omillarning bo‘lishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi g‘oyasi bo‘lib qolaverdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston tarixi /H. Sodiqov, N. Lo‘rayev; tahrir hayati: A.S. Sagdullayev [va boshq.]; mas’ul muharrir A. Sagdullayev, N. Abduazizova; O‘zR Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat akad., O‘zbekistonning yangi tarixi markazi. - Tjshkent: Sharq, 2011. -B.10. (720 b.)

2.Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. (Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида).-Тошкент: Шарқ, 200.-Б.44. (688 б)

3.Қозоқов Т. Фарғона водийсида жадидчилик харакати.-Наманган: Наманган нашриёти, 2018.-Б.93. (141 б.)

4.Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти.-Тошкент: Маънавият, 2000.-Б.56. (168 б.)

5.Ражабов Қ., Рахматов М. Туркистонда совет ҳокимиятининг иқтисодий сиёсати ва очарчилик даҳшатлари (1917-1924 йй.),-Тошкент: Фан, 2022.-Б.41. (176 б.)

6.Аллворт Эдвард. Россия: прорыв на Восток. Политические интересы в Средней Азии. - Москва: Центрполиграф, 2016. - C.130.

7.Мирзаджанов Б. Кадровая политика советской власти в Туркестане (1917-1924 гг.): Автореф. Дисс....доктора филос.... (PhD) по ист... наукам.-Ташкент, 2020.-C.15.(52 с.)

- 8.Рахматов М. Туркистондаги очарчилик ва унинг оқибатлари (1917 – 1924 йй.): тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс...автореф.-Тошкент, 2019.-Б.12-13, 24.
- 9.Агзамходжаев С.С. Туркистон Мухторияти: Боръба за свободу и независимость (1917-1918гг.): Автореф. дис. Д-ра. ист. наук.-Ташкент, 1996.-С.45.
- 10.Sodiqov, Hamdam. O‘zbekiston tarixi /H. Sodiqov, N. Jo‘rayev; tahrir hayati: A.S. Sagdullayev va boshq.-Toshkent: Sharq, 2011. - B.48. (720 b.)
- 11.Намангандан //Улуғ Туркистон.-1917.-13 декабрь.
- 12.Sodiqov, Hamdam. O‘zbekiston tarixi / H. Sodiqov, N. Jo‘rayev; tahrir hayati: A.S. Sagdullayev va boshq.-Toshkent: Sharq, 2011. - B.51.
13. Норкулов Н. Мухториятнинг тугатилиши //Фан ва Турмуш.-1990.- №8.- Б.9.
- 14.Наманган вилоят давлат архиви, 796-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 16-варақ.
- 15.Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости (Коллектив авт.: Р.Абдуллаев, С. Агзамходжаев, И.Алимов и др.).- Ташкент: Шарқ, 2000.- С.115. (672 с.)
- 16.Мустабид тузумнинг Ўзбекистан миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865—1990 йиллар) (Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир: Д. А. Алимова).-Тошкент: Шарқ, 2000.-Б.50. (432 б.)
- 17.Абдулҳамид Кўчар. Қуллиқдан хурликка (Бир туркистонликнинг хотиралари).- Тошкент: Муҳаррир, 2019.-Б.10. (129 б.)
- 18.Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости (Коллектив авт.: Р.Абдуллаев, С. Агзамходжаев, И.Алимов и др.).- Ташкент: Шарқ, 2000.- С.111-112. (672 с.)
- 19.Агзамходжаев С. История Туркестанской автономии: (Туркистон Мухторияти).- Ташкент: Тошкент ислом университети, 2006.-С.199. (268 с.)
- 20.Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи: тарих фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф.-Тошкент, 2018.-Б.12-13. (48 б.)
- 21.Рахимов М. История Ферганы. - Ташкент: Фан, 1984.-С.31-32. (132 с.)
- 22.Нуруллин Р. Советы Туркестанской АССР в период гражданской войны.- Ташкент: Фан, 1965.-С.133.
- 23.Мансуров У. 1917–1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи: тарих фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф.-Тошкент, 2018.-Б.12-13. (48 б.)
- 24.Боймирза Ҳайит. “Босмачилар”: Туркистон миллий кураши тарихи (1917 – 1934).- Тошкент: Академнашр, 2023.-Б.314. (376 б.)

25.Куделя-Одабашьян М. Туркестан в составе Советской России: проблемы социально-экономического и политического развития (октябрь 1917 г. - октябрь 1924 г.): Дисс...докт. ...ист. ...наук.-Москва, 2001.-С.133. (473 с.)

26.Хонқулов Ш. Фарғона водийсидаги ижтимоий-маданий жараёнларда Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. авторефер....-Фарғона, 2022.-Б.19.

27.Қўқонбоев А. Фарғонада совет ҳокимиятини ўрнатиш ва мустаҳкамлаш учун кураш.-Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1958.-Б.61. (118 б.)

28.Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости (Коллектив авт.: Р.Абдуллаев, С. Агзамходжаев, И.Алимов и др.).- Ташкент: Шарқ, 2000.- С.167. (672 с.)